



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2024/2 (11)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining
2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan
o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy
nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin
bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.*

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

SAIDOVA Galina Karimovna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEKMURADOV Adham Sharipovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

SAIDOV Akmal Xolmatovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*

TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – *tibbiyot fanlari nomzodi.*

UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

ZIYAYEV Azamad Xamidovich – *tarix fanlari doktori, professor.*

ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – *psixologiya fanlari doktori.*

TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*

Сандова Галина Каримовна – *доктор экономических наук, профессор.*

Шоумаров Гайрат Бахрамович – *доктор психологических наук, профессор.*

Абдураманов Хамид Худайbergenovich (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*

Бекмуратов Адхам Шарипович – *доктор экономических наук, профессор.*

Маъруфова Гулнора Махмудовна – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщин и гендерного равенства.*

Мусурманова Айниса Мусурмановна – *доктор педагогических наук, профессор.*

Рахимова Нигина Хайруллаевна – *доктор экономических наук, профессор.*

Сандов Акмал Холматович – *доктор юридических наук, профессор.*

Якубжанова Дилобар Батировна – *доктор педагогических наук, доцент.*

Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна – *кандидат медицинских наук.*

Умирзаков Баходир Хамидович – *доктор экономических наук, профессор.*

Зияев Азамат Хамидович – *доктор исторических наук, профессор.*

Абдусаматов Хасанбой Усмонжон угли – *доктор психологических наук.*

Туракулов Улугбек Холбутаевич – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

Saidova Galina Karimovna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*

Shoumarov Ghayrat Bakhramovich – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*

Bekmuradov Adkham Sharipovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*

Marufova Gulnora Makhmudovna – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*

Musurmanova Aynisa Musurmanovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

Rakhimova Nigina Khayrullayevna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*

Saidov Akmal Kholmatovich – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*

Yakubjanova Dilobar Batirovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*

Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – *Candidate of Medical sciences.*

Umirzakov Bakhodir Khamidovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*

Ziyayev Azamad Khamidovich – *Doctor of Historical sciences, Professor.*

Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – *Doctor of Psychological Sciences.*

Torakulov Ulugbek Holbutayevich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,
Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,
Javoharlal Neru universiteti,
Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,
Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,
pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,
Texnologiya fakulteti boshlig'i,
London biznes va moliya maktabi,
Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,
Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,
Школа международных исследований,
Университет Джавахарлала Неру,
Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина Иосифовна,
Челябинский государственный институт культуры,
доктор педагогических наук,
профессор

Доктор Прити Кесаван,
Руководитель Технологического факультета
Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar
Assistant Professor
Centre for Russian and Central Asian Studies
School of International Studies
Jawaharlal Nehru University
New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna
Chelyabinsk State Institute of Culture
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Dr. Preethi Kesavan
Head, School of Technology
London School of Business and Finance, Singapore

SOTSIOLOGIYA

Saydivalieva X.X., Kadirova T.J. Mehnat munosabatlarida kamsitish holatlarining oldini olish va gender tengligini ta'minlashning ijtimoiy huquqiy jihatlari	4
Мусаева М.И. Гендерные различия в диагностике расстройства аутистического спектра.....	12
Inoyatova S.J. Oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishga oid xorij tajribasining o'ziga xos xususiyatlari	17
Ilxamova Z. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xotin-qizlarning ishtiroki	24
Zokirov S., Xusanova S. O'zbekistonda ta'lim davomiyligi: hududlar va jinslar bo'yicha farqlar, ularning sabablari.....	29

OILA VA JAMIYAT

Hojiyev R.B. Oilaviy nizolarni bartaraf qilishda oilaviy mediatsiyaning roli (Turkiya tajribasi misolida).....	35
Abduramanov X.X., Saxibov O.K., Rustamov J.I. Oilaviy ajrimlarning farzand tarbiyasiga ijtimoiy-psixologik ta'siri	40
Abdibosитov A. Huquqiy ong tushunchasining tarkibiy tahliliga oid ayrim fikr va mulohazalar	46
Muhitdinova D. Huquqiy madaniyat yetishmasligi sababli kelib chiqadigan muammolar va ularni bartaraf etish	51

PSIXOLOGIYA

Yangiboyeva D.R. Ko'p bolali oilalar submadaniyatida shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari	56
Xusanov S. "Mehnat motivatsiyasi" tushunchasining ilmiy-nazariy o'rganilishi	63
Аскарова Г., Каримова Н. Социально-психологические особенности копинг-поведения среди молодежи	68
Nomozova R.O. Ilm-fan sohasida gender tenglikni rivojlantirishning psixologik aspektlari	75
Imonova M.B. O'smir shaxsi shakllanishida sibling maqomining psixologik ta'siri.....	80
G'ulomqodirov E.A. Psixologik nazariyalarda oilaviy zo'ravonlik tushunchasining talqini	85

PEDAGOGIKA

Qurbonova B.N. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning ijodkorligini shakllantirish	91
---	----

DEMOGRAFIYA

Dusnayev Sh.E. O'zbekiston aholisi soni va tarkibidagi dinamik o'zgarishlarning iqtisodiy-statistik tahlili	96
--	----

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

Rabiyev B.B. Ayollar uy xizmati migratsiyasini tartibga solish bo'yicha Filippin tajribasi.....	102
--	-----



G'ulomqodirov Eldorjon Axmadjon o'g'li,
"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
eldorjongulomqodirov@gmail.com

PSIXOLOGIK NAZARIYALARDA OILAVIY ZO'RAVONLIK TUSHUNCHASINING TALQINI

Annotatsiya. Murakkab va keng tarqalgan muammo hisoblangan oilaviy zo'ravonlik psixologiya sohasining o'rganish obyektiga aylandi. Ushbu maqolada turli psixologik nazariyalarda oilaviy zo'ravonlik tushunchasining sabablari, dinamikasi va oqibatlari haqidagi ma'lumotlarning qiyosiy tahlili hamda muallifning fikrlari bayon etiladi.

Tayanch so'zlar: zo'ravonlik, oilaviy zo'ravonlik, rivojlanish dinamikasi, zo'ravonlik sikli, zo'ravonlik jarayoni, hukmronlik, boshqaruv modeli.

Аннотация. Насилие в семье, которое является сложной и распространенной проблемой, стало объектом изучения в области психологии. В этой статье будет проведен сравнительный анализ данных о причинах, динамике и последствиях концепции домашнего насилия в различных психологических теориях, а также изложены мнения автора.

Ключевые слова: насилие, домашнее насилие, динамика развития насилия, цикл насилия, процесс насилия, контроля, модель доминирования.

Annotation. Domestic violence, a complex and widespread problem, has become an object of study in the field of psychology. This article presents a comparative analysis of the data on the causes, dynamics and consequences of the concept of family violence in various psychological theories and the author's opinions.

Keywords: violence, family violence, developmental dynamics of violence, cycle of violence, process of violence, governance, management model.

Kirish. Oila jamiyatning kichik bo'g'ini va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, asriy an'ana va qadriyatlarni avlodlarga yetkazuvchi ijtimoiy institut sifatida davlat va jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan oiladagi shaxslararo munosabatlar va ularning dinamikasi jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi omil hisoblanadi. Oilaviy munosabatlardagi kelishmovchiliklar va zo'ravonlik holatlari nafaqat bugungi hayotimiz, balki kattalarga taqlid orqali zarur ijtimoiy ko'nikmalarni egallab borayotgan kelgusi avlod uchun ham muammolarni keltirib chiqaradi. Zo'ravonlik tushunchasining lug'aviy ma'nosini, tadqiqotchi psixologlar tomonidan berilgan ta'riflar, psixologik nazariyalardagi zo'ravonlik

tushunchasining talqinini o'rganish muammoni kompleks tadqiq etish, uning oqibatlariga qarshi samarali kurashishga xizmat qiladi.

Maqsad va uni asoslash. APA (Amerika psixologlar assotsiatsiyasi) tomonidan tayyorlangan psixologik atamalar lug'atida keltirilishicha, "zo'ravonlik – jismoniy kuch ishlatish orqali yoki insonlar va narsalarni zararlash, shikast yetkazish orqali namoyish qilinadigan g'azab va shafqatsiz munosabat yoki ehtiros va his-tuyg'ularning jo'shqinligi, intensivligi", deb tushuntiriladi¹.

Oilaviy zo'ravonlik epidemiya kabi keng tarqalgan va ko'plab insonlar hayoti davomida uning

¹ APA dictionary of psychology / Gary R. VandesBos, editor chief. Second edition. – New York, 2007. – P. 1139.

ishtirokchisi yoki qurboniga aylangan zo'ravonlik ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Psixologik adabiyotlarda oilaviy zo'ravonlik tushunchasi shaxsning bir yoki bir nechta oila a'zolariga jismoniy zarar yetkazadigan har qanday ko'rinishi sifatida ta'kidlanib, u ayollar, bolalar va keksalarga qaratilgan bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi². Oilaviy zo'ravonlik tushunchasini faqat jismoniy ko'rinishi bilan cheklab qo'yish uning tabiatini ochib bera olmaydi. Psixologik zo'ravonlik oilada eng ko'p takrorlanadigan zo'ravonlik turi hisoblanishi fikrimiz isboti bo'ladi.

Zo'ravonlik tushunchasining aniq talqinini birinchi bo'lib Zigmund Freyd shakllantirgan, u tajovuzni boshidanoq insonga xos bo'lgan instinktlarning namoyon bo'lishi deb tushuntirgan. Instinktlar va ijtimoiy imperativlar o'rtasida mavjud bo'lgan doimiy qarama-qarshilik, inson harakatlarini bog'lab turadi va bu ichki keskinlik uchun asos yaratadi. Bu keskinlik zo'ravonlik va tajovuzkorlik sifatida namoyon bo'ladi. Shaxs o'ziga, umuman, tashqi dunyoga va ijtimoiy hayotning boshqa subyektlariga tajovuz qiladi.

1932-yilda Eynshteyn va Freyd o'rtasidagi yozishmalarda urush va uning mohiyati, zo'ravonlik haqida to'xtalib o'tiladi. Zo'ravonlikni insonning o'ziga va atrofdagilarga qarshi qaratilgan instinktiv komponent sifatida ta'riflaydi. Jamiyat va davlat tizimini tartibga soluvchi qonunlarning o'zi zo'ravonlik mahsuli ekanligini ta'kidlaydi. Davlat boshqaruvida zo'ravonlikka asoslangan qonunlarning eng yaxshisi mavjud hokimiyatni mustahkamlashga, yomoni esa qayta taqsimlashga xizmat qilishini aytadi³. Z.Freydning fikricha, zo'ravonlik "men" va "super-men" o'rtasidagi qarama-qarshilik natijasidir. Freyd va uning psixoanaliz yondashuvi tarafdorlari oilada ayollarga nisbatan zo'ravonlik hodisasini ayollarning o'ziga xos xususiyati, ya'ni o'zini qurbon qilish asosida tushuntirib beradi. Ba'zi ayollar turmush o'rtoqlarining zo'ravonligini qo'zg'atishga moyil o'zlarining ongsiz ehtiyojlarini qondirish uchun azob-uqubatlarni boshdan kechiradilar va bundan zavqlanadilar. Psixoanalitik konsepsiya asosida ishlaydigan mualliflar ayollardagi bu holatni bolalikdagi shikastlanishlar natijasi va o'sha vaziyatni

qayta tiklash uchun keyingi ongsiz moyillik ta'siri bilan tushuntiradilar. Ko'plab tadqiqot ma'lumotlari bolaligida jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlik qurboni bo'lgan insonlarning zo'ravonlik qurboni bo'lish ehtimoli ko'proq ekanligini tasdiqlaydi. Bunda bolalikda zo'ravonlik qurboni bo'lgan erkaklar boshqalarga nisbatan tajovuzkorlikka, ayollar esa qurbon bo'lishga moyilligi qayd etilgan.

Neobiheviyistik yo'nalish nuqtayi nazaridan oilaviy zo'ravonlik xatti-harakati ota-ona oilasida bunday holatlarning namunalarini kuzatish natijasi deb hisoblanadi. Neobiheviyistik yo'nalishdagi ijtimoiy o'rganish nazariyasi zo'ravonlikni tushuntirishdagi keng tarqalgan nazariyalardan biridir. U zo'ravonlik ichki motivlar tufayli yuzaga kelishini rad etadi. Aksincha, odamlar boshqa xatti-harakatlarni qo'zg'alish, taqlid qilish va mustahkamlash bosqichlari orqali o'rgangani kabi zo'ravonlikni ham shu tartibda o'zlashtiradi.

Ijtimoiy ta'lim nazariyasi insonda zo'ravonlikning rivojlanishini rag'batlantiradigan yaqin atrof-muhitning rolini ta'kidlaydi. Bu nazariya M.Kaufman asarlarida bayon etilgan. M.Kaufman zamonaviy jamiyatda zo'ravonlikning kelib chiqishini o'rganar ekan, 1970-yillarda ilgari surilgan radikal feministik nazariyani rad etadi. U e'tiborni jalb qilmoqchi bo'lgan asosiy jihat erkaklar zo'ravonligi o'ziga nisbatan zo'ravonlikdan (o'g'il bolalarga o'z his-tuyg'ularini ko'rsatishni taqiqlash) boshlanadi, keyin ayollar bilan munosabatlar darajasiga o'tadi va keyin butun jamiyatga tahdid sola boshlaydi. Bunday holda zo'ravonlik erkakning ishda yoki jamiyatda duch kelgan muammolari va nochorlik hissi uchun kompensatsiya, shuningdek, ayolni o'z nazoratiga bo'ysundirish istagi va uni boshqarish usulidir.

Ushbu ijtimoiy o'rganish jarayoni oilada boshlanadi. Ba'zi ota-onalar o'z farzandlarini boshqalarga nisbatan zo'ravonlik qilishga undaydi va ulardan zo'ravonlik qurboni bo'lmaslikni talab qiladi. Zo'ravonlik oilada, maktabda va ommaviy axborot vositalari orqali o'rganiladi. Tarbiya vositasi sifatida ota-onalar, o'qituvchilar tomonidan qo'llangan jazo chorasi salbiy oqibatlariga olib keladi. Ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlar, ilk bolalik davrida boshdan kechirgan voqealar yetuklik davrida inson shaxsiyatini shakllantiradi. A.Bandura o'z tajribalarida oila a'zolarining tajovuzkor xatti-harakatlarini bolalar o'zlari uchun modellashtirilgan

² APA dictionary of psychology / Gary R. VandesBos, editor chief. Second edition. – New York, 2007. – P. 330.

³ Why war? A letter from Freud to Einstein. <https://courier.unesco.org/en/articles/why-war-letter-freud-einstein>

xulq-atvor sifatida qabul qilishlarini isbotlaydi. O'g'il bolalardagi tajovuzkorlik oila va undan tashqarida ham mustahkamlanib boradi. "Bu nazariya har qanday organizmning asosiy vazifasi, shu jumladan, inson mavjud sharoitlarga passiv moslashishi va diadaga xos harakatlar, shaxsning psixologik xususiyatlari shaxslararo o'zaro munosabatlarga bog'liq ijtimoiy-psixologik hodisalar ekanligini aks ettiradi"⁴.

Zo'ravonlikni psixologik nuqtayi nazardan talqin qilgan yana bir olim E.Fromm bo'lib, u tajovuzga quyidagicha ta'rif beradi: "boshqa shaxsga, hayvonga yoki jonsiz obyektga zarar yetkazadigan barcha harakatlar"⁵. Frommning aytishicha, yaratishga qodir bo'lmagan odam halokat kuchiga murojaat qiladi. Bunday holda, zo'ravonlik tabiatan kompensatsiya hisoblanadi. Bu xarakter halokatli inson hayotining natijasidir. E'tiqoddagi umidsizlik, ko'ngilsizlik hayotga nisbatan nafratni keltirib chiqaradi. Vayrongarchilik orqali inson o'zining qadr-qimmatini qayta tiklaydi.

Frustratsiya nazariyasining tarafdorlari zo'ravonlikni shaxs va jamoa tomonidan obyektiv ravishda yengib bo'lmaydigan yoki subyektiv ravishda shunday tuyuladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo'ladigan holatga nisbatan reaksiya deb ta'rif berishadi. Zo'ravonlik sababi ko'zlangan maqsadga erisha olmaslik, umidsizlik yoki ambitsiyalarga nisbatan reallikdagi nomuvofiqlik bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bu shaxsning o'z ehtiyojlarini qondirishga to'sqinlik qiladigan qiyinchilknini idrok etishi yoki kelajakda ushbu hodisaning sodir bo'lishini kutishni o'z ichiga olgan jarayondir. Bundan Dollard tajovuz va zo'ravonlikni tushuntirish uchun bir qator psixologik qonunlarni ilgari surdi, jumladan,

1. Barcha tajovuzkor taranglik repressiyadan kelib chiqadi.
2. Aggressiyaning kuchayishi, bostirilgan ehtiyojning ortishi bilan mutanosibdir.
3. Repressiya elementlarining ko'payishi bilan tajovuz kuchayadi.
4. Aggressiyaning bostirish jarayoni keyingi tajovuzga olib keladi va uni yengillashtirish

⁴ Bandura A. Perceived self-efficacy in cognitive development and function // Education psychologist. – 1993. – Vol. 28. – № 2. – P. 148.

⁵ Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности. – М., АСТ., 2004. – С. 63.

vaqtinchalik bo'lsa ham, uning zo'ravonligini kamaytiradi.

Zo'ravonlik harakati bevosita frustratsiya manbasiga qaratilgan bo'ladi va unga nisbatan amalga oshiriladi. Agar zo'ravonlikni umidsizlik, xafagarchilikning asl sababchisiga nisbatan amalga oshirish imkoni bo'lmasa, tajovuz frustratsiya manbasiga bevosita yoki ramziy aloqador bo'lgan boshqa insonga yo'naltiriladi. Masalan, direktoridan tanbeh eshitgan xodim o'z agressiyasini bevosita direktorga ko'rsata olmagan uchun g'azabini o'quvchilarga qaratadi.

Interaktiv nazariya asosida hukmronlikka intilish va zo'ravonlikka asoslangan o'zaro munosabatlar turadi. M.Kimmel bu yondashuvni ijtimoiy o'rganish nazariyasi bilan uyg'unlashtirib, erkaklarning ayollarga nisbatan zo'ravonligini ijtimoiylashtirish natijasi deb hisoblaydi. Bolalik davridayoq erkaklarda zo'ravonlik muloqotning maqbul shakli ekanini tushunadilar. M.Kimmel, shuningdek, erkaklar va ayollar tomonidan oilada zo'ravonlikning namoyon bo'lishini kuchlarning nomutanosibligi bilan bog'laydi: ko'pincha qarorlar turmush o'rtoqlardan biri tomonidan qabul qilinadigan oilalar tez-tez zo'ravonlik muammosiga duch keladi. M.Kimmel erkaklar va ayollar tomonidan zo'ravonlik qo'llashdagi farqlarni qayd etadi: erkaklar o'z xotinini irodasiga bo'ysundirish uchun zo'ravonlik ishlatadilar, itoatkorlikka erishishga harakat qiladilar. O'zaro munosabatlarda zo'ravonlikdan foydalanadigan ayollar uchun bu umidsizlik yoki g'azabni ifodalash vastasidir.

Muammoga qurbonlik nuqtayi nazaridan yondashish ayolning "jabrlanuvchi" sifatidagi xatti-harakati orqali o'zi zo'ravonlikni qo'zg'atuvchi stimulyazifasini o'taydi. Ushbu yondashuv qisman nemis tadqiqotchisi Shnayderning asarlarida taqdim etilgan bo'lib, unda jabrlanuvchi va zo'ravonning harakatlari o'rtasida aloqa o'rnatiladi. U zo'ravonlikning 3 bosqichini aniqlaydi. Birinchi bosqichda potensial jabrlanuvchi tomonidan zo'ravon ustidan nazoratni kuchaytirishga urinish bo'ladi, ikkinchi bosqichda zo'ravonlik amalga oshiriladi, uchinchi bosqichda esa jabrlanuvchining zo'ravonga qaramligini ochib beradi, bu esa uni jazodan ozod qiladi va siklning takrorlanishiga olib keladi.

Zo'ravonlikni o'rganishning strukturali nazariyasi patriarxat tizimga e'tiborni qaratadi, bu esa har qanday odamni potensial zo'rlovchi

pozitsiyasiga qo'yadi. Bu yondashuv J.Xirn va M.Sheller tomonidan ishlab chiqilgan. J.Xirn erkaklar bilan hokimiyat va nazorat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Muallif mahbuslar orasida erkaklar sonining ko'pligiga ishora qilib, buning sababini erkaklarning zo'ravonlikka moyilligi, zo'ravonlikka moyilligini esa patriarxat tuzum bilan bog'laydi.

Margaret Sheller ayollarga nisbatan zo'ravonlikni ularning ayollik tabiatining oqibati sifatida izohlaydi. Ayol bo'lib tug'ilishi va erkak bilan muayyan munosabatda bo'lishi bilan ayol unga nisbatan alohida, pastroq ijtimoiy mavqega ega bo'ladi.

Bugungi kunga qadar bizga zo'ravonlikning sabablari va mexanizmlarini tushunishga imkon beradigan bir nechta ilmiy yondashuvlar shakllangan:

1) ijtimoiy-psixologik yondashuv (zo'ravonlikni oiladagi salbiy hayot tajribasi, ijtimoiylashuv jarayoni va oilada destruktiv ota-ona modelining natijasi deb tushuntiradi)⁶;

2) psixoterapevtik yondashuv (zo'ravonlikni oilaviy munosabatlarda hal etilmagan muammolar, oilada rollarning chalkashligi va tizim sifatida oilaning disfunktsiyasi oqibati deb hisoblaydi);

3) ijtimoiy-madaniy yondashuv (jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, erkaklarning o'z ustunligini isbotlash strategiyasi, ayollarning iqtisodiy va psixologik qaramligi – oilaviy munosabatlarga ta'sir qilishi hisobga olinadi)⁷;

4) ijtimoiy ish amaliyoti va xorijiy nazariyalardagi ko'p faktorli yondashuv. Bu yondashuv zo'ravonlikning tabiati va qonuniyatlarini aniqlashga ko'proq yordam beradi:

– zo'ravonlik harakatlari ko'proq ayollarga va bolalarga qarshi qo'llanadi;

– eng keng tarqalgan zo'ravonlik turlari psixologik va jismoniy zo'ravonlikdir;

– qarindoshlar va yaqin insonlar ko'pincha zo'ravon rolda bo'lishadi;

– zo'ravonlik odatda takrorlanadi, ba'zi oilalarda davriy xarakter kasb etib, keying avlodlarda ham kuzatiladi;

– zo'ravonlik qurbonlari huquqni muhofaza qiluvchi organlardan qochib,

do'stlari yoki ijtimoiy muassasalardan yordam izlashadi;

– ta'lim va etnik kelib chiqishi zo'ravonlik xarakteri va chastotasiga ta'sir qilmaydi;

– zo'ravonlar, taxminan, 10–15% ruhiy kasal va taxminan, 60% psixologik buzilishga uchragan shaxslardir;

– zo'ravonlik turmush o'rtoqlarga nisbatan avvalgi nikohdagi "farzandlarini deb" qo'llanadi⁸.

Zo'ravonlikning rivojlanish dinamikasini tushunishda 3 ta mashhur modeldan foydalanamiz:

- zo'ravonlik sikli (Lenor Uolker);
- zo'ravonlik jarayoni (Landerberger);
- hokimiyat va boshqaruv (Dulut).

1. Zo'ravonlik sikli – Leoner Uolker oiladagi zo'ravonlik holatini davriy xarakterga ega deb tushuntiradi. Ayollarni zo'ravon erdan ajrashishga 3 ta omil to'sqinlik qiladi:

• Qo'rquv. Zo'ravonlik o'rganilgan nochorlikni keltirib chiqaradi. Ayol o'zini kuchsiz va himoyasiz his qiladi, ajrashish hech qaday natija olib kelmaydigandek tuyuladi.

• Aybdorlik. Ayol bo'layotgan voqealar uchun o'zini ayblaydi. Eri bilan ajrashsa, qattiq pushaymonlikni boshdan kechiradi. Erisiz yashay olmasligi sababidan uni tark etolmaydi.

• Umid. Kutilgan umid, juftining o'zgarishiga emas, balki ayol o'zini o'zgartirishi, zo'ravonning yuqori talablariga javob berishiga umid qiladi.

Zo'ravon uchun zo'ravonlikni qo'llash uning o'ziga bo'lgan hurmatini oshirish, o'z ustunligini isbotlash usulidir. O'zining ichki muammolarini uning munosabatlariga toqat qiladigan boshqa insonga chiqaradi. Bunday insonlar o'zlarining his-tuyg'ulari haqida gapirolmaydi, ularni zo'ravonlik orqali ifoda etadi. Ular o'rtasidagi zo'ravonlik bir necha bosqichlarni bosib o'tadi:

1-bosqich. Zo'ravonlikning kuchayish bosqichi. Zo'ravon o'zining charchaganini, ishdagi muamollariga jabrlanuvchini sababchi qiladi. Ayol jiddiy nizolardan qochishga intiladi va juftini tinchlantirish, uning istaklarini bajarishga harakat qiladi. Mojaro jiddiyligi va intensivligi oshgan sayin ayollarda nochorlik va qo'rquv hissi kuchayadi.

⁶ Сулейманова В.И. Насилие в супружеских отношениях: автореф. дисс. ... канд. соц. наук. – Санкт-Петербург, 2006. – С. 15.

⁷ Gelles R.J., Straus M.A. Determinants of violence in the family: toward a theoretical integration / Contemporary theories about the family / Ed. By W.R.Burr, R.Hill, F.I.Nye, I.L.Reiss, 1979. pp. 549-581.

⁸ Чалдини Р., Кенрик Д., Нейсберг С. Социальная психология. Пойми других, чтобы понять себя! // [Текст] / Р.Чалдини, Д.Кенрик, С.Нейсберг. – СПб.: прайм-ЕВРОЗНАК, 2002. – 256 с.

2-bosqich. Zoʻravonlik hodisasi – zoʻravonlik va shafqatsizlik avj oladi. Jismoniy zoʻravonlikdan tashqari gʻazab, tahdid, qoʻrqitish bilan tahdid qiladi. Ayol barcha kuch va taʼsir qilish vositalarini oʻzi va farzandlarining himoyasiga yoʻnaltiradi.

3-bosqich. Murosa – zoʻravon oʻzini aybdor his qiladi va boshqa bu holatni takrorlamaslikka vaʼda beradi. Bu harakatlar ayolda zoʻravonlikni toʻxtatishga umid uygʻotadi. Ammo bu harakatlar jinoiy javobgarlikka tortilmaslik va jabrlanuvchi boʻlgan voqealarni yaqinlari va doʻstlariga aytmasligi uchun amalga oshiradi.

4-bosqich. Asal oyi – voqealar unitiladi, aybdor kechiriladi. Zoʻravon oʻzini muloyim tutadi va munosabatlar iliqlashadi.

Bu davriy ketma-ketlik takrorlanaveradi, asal oyi va zoʻravonlik oʻrtasidagi vaqt qisqarib, zoʻravonlik tobora shafqatsiz tus olib boradi.

Zoʻravonlik jarayoni (Landerberger) – Landerberg zoʻravonlik tajribasini idrok etish, zoʻravonlik munosabatlarida oʻzini oʻzi qadrlashni oʻrgangan. Er-xotinlik munosabtlarining faqat birinchi bosqichida juftlar oʻrtasida muhabbat va samimiy munosabtlar shakllanadi. Zoʻravonlik holatiga duch kelganda ayollar jufti bilan munosabatlarni saqlash va kelajakda bunday holatlarning oldini olish uchun katta kuch sarflaydi. Vaqt oʻtishi bilan bu urinishlar samarasiz ekanligini koʻrgan ayol uzoq muddatli munosabtlar haqida shubhalana boshlaydi.

Sabr bosqichida ayol oʻzini oʻzi qisman aybdor deb bilgani va ijobiy munosabtlarga umid bogʻlagani uchun jufti bilan munosabatlarda zoʻravonlikka toqat qiladi. Ushbu bosqichda ayol boshqalardan yordam olishga harakat qiladi. Lekin erining jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini saqlash va oʻzining xavfsizligini taʼminlash uchun zoʻravonlikning barcha tafsilotlarini oshkor qilmaydi.

Ajrashish bosqichida ayol juftiga uni zoʻrlayotganini va bunday munosabatga loyiq emasligini aytadi. Burilish nuqtasi ayol oʻziga tahdid solayotgan xavfni anglaganida sodir boʻladi. U juftidan faol ravishda uzoqlashadi, oʻzining xavfsizligini taʼminlash uchun alohida yashashga qaror qiladi. Reabilitatsiya bosqichida ayol unga nibatan zoʻravonlik qilgan eridan alohida yashaydi.

1984-yilda Minnesota shahrida oʻquv kurslarida qatnashayotgan ayollar bilan oʻtkazilgan suhbatlarga asoslanib, oilaviy zoʻravonlikka qarshi

kurash boʻyicha Dulut dasturi doirasida sheriklariga nisbatan jismoniy va psixologik zoʻravonlik qiladigan erkaklarning xatti-harakatlarini tavsiflovchi struktura ishlab chiqildi. Koʻp ayollar zoʻravonlikning davriy hodisa ekanligi yoki erkaklarning stressni yengish bilan bogʻliq qobiliyatsizligi natijasi sifatida taʼriflaydigan nazariyalarga eʼtiroz bildirishdi. Oilada zoʻravonlikka uchragan ayollarning tajribasi asosida zoʻravonlikni hukmronlik va boshqaruv bilan bogʻlovchi nazariya ishlab chiqildi. Oiladagi zoʻravonlikning kuch va nazorat modeli zoʻravonlikning maqsadi hokimiyatga erishish va uni saqlab qolishga qaratilganini taʼkidlaydi. Chunki oilaviy zoʻravonlik jabrlanuvchilarining tajribasi sheriklarining xatti-harakatlari tasodifiy emasligi, balki doimo maqsadli va tizimli ekanligini koʻrsatadi. Zoʻravonlarning xatti-harakatlarining maqsadi sheriklarini nazorat qilishdan iborat. Dulut dasturi doirasida jabrlanuvchi ayollar tajribasi asosida ishlab chiqilgan “Quvvat va boshqaruv gʻildiragi”da zoʻravon oilada oʻz sherigini qoʻrqitish, hissiy zoʻravonlik, izolyatsiya, rad etish, ayblash, bolalarga zugʻum qilish, majburlash, tahdid qilishda foydalanish orqali zoʻravonlik xatta-harakatini amalga oshirishi aytilgan.

Yakuniy qism. Zoʻravonlik shaxs, oila, jamiyat va davlat darajasida amalda qoʻllanadigan keng koʻlamli tushuncha boʻlgani sababli psixologik nazariyalar zoʻravonlik tabiatini toʻla-toʻkis ochib berolmaydi. Shu tufayli psixologlar koʻzga koʻrinmaydigan, ammo maʼlum bir shaxs yoki guruh tomonidan amalga oshirilgan tajovuzkor xatti-harakatlarning orqasida turgan faktlarni oqlaydigan va ochib beradigan nazariyalarni ishlab chiqishgan. Zoʻravonlikka qarshi kurashish va uning oqibatlarini samarali bartaraf etishda ushbu nazariyalarga tayangan holda zoʻravonlikni keltirib chiqaruvchi omillarni bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi psixologik nazariyalarda zoʻravonlik, ayniqsa, uning keng tarqalgan koʻrinishi boʻlgan oilaviy zoʻravonlikning talqiniga oid tahlillarda ushbu holatni keltirib chiqaruvchi omillarning asosiy 3 turi koʻrsatilgan. Xususan, psixoanaliz konsepsiyasi tarafdorlari zoʻravonlik instinktiv tabiatga ega ekanligini taʼkidlashsa, inson xulq-atvoriga yuqori urgʻu beradigan behavioristik yondashuv tarafdorlari taqlid va ijtimoiy oʻrganish mahsuli sifatida talqin etishdi. Bundan tashqari, zoʻravonlik vujudga kelishida shaxslararo

munosabatlar, frustratsiya kabi shaxsda yuzaga keladigan psixologik holatlarga urg'u beradigan ijtimoiy struktura nazariyasi, frustratsiya nazariyasi ham zo'ravonlik tabiatining ijtimoiy jihatlarini ochib beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, zo'ravonlik hodisalarini tushunishning nazariy

yondashuvlarini ko'rib chiqishni umumlashtirgan holda fanda oilaviy zo'ravonlik tushunchasining yagona ta'rifi mavjud emas. Oilaviy zo'ravonlik tushunchasi fanlararo o'rganiladigan muammo bo'lib, huquqshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, deviantologiya kabi fan tarmoqlari hodisani o'z fanlari prizmasi orqali ko'rib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'XATI

1. APA dictionary of psychology / Gary R. VandesBos, editor chief. Second edition. – New York, 2007. – P. 1139.
2. Bandura A. Perceived self-efficacy in cognitive development and function- ning // Education psychologist. – 1993. – Vol. 28. – № 2. – P. 148.
3. Gelles R.J., Straus M.A. Determinants of violence in the family: toward a theoretical integration / Contemporary theories about the family / Evid. By W.R.Burr, R.Hill, F.I.Nye, I.L.Reiss, 1979. pp. 549-581.
4. Why war? A letter from Freud to Einstein. <https://courier.unesco.org/en/articles/why-war-letter-freud-einstein>
5. Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности. – М; АСТ., 2004. – С. 63.
6. Сулейманова В.И. Насилие в супружеских отношениях: автореф. дисс. ... канд. соц. наук. – Санкт-Петербург, 2006. – С. 15.
7. Чалдини Р., Кенрик Д., Нейсберг С. Социальная психология. Пойми других, чтобы понять себя! // [Текст] / Р.Чалдини, Д.Кенрик, С.Нейсберг. – СПб.: прайм-ЕВРОЗНАК, 2002. – 256 с.

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

Общество, гендер и семья в Центральной Азии
Society, Gender and Family in Central Asia

xalqaro ilmiy jurnali

международный научный журнал

international academic journal

2024/2 (10)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga
pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun
ilmiy maqolalar e‘lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O’.,
Razzakova N., Sobirova E.,
Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.